

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDADI
ILMIY DARAJA BERUVCHI DSc.03/30.12.2019K.01.03
RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDA BIR MARTALIK
ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

USMONOVA SAIDAXON GULAMOVNA

**ORTO-, PARA-PROPARGILOKSIBENZALDEGIDLAR ASOSIDA 1,2,3-
TRIAZOL HOSILALARI SINTEZI VA ULARNING KIMYOVIY
XOSSALARINI O‘RGANISH**

02.00.14 – Organik moddalar va ular asosidagi materiallar texnologiyasi

**KIMYO FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

**Kimyo fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
химическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
chemical sciences**

Usmonova Saidaxon Gulamovna

Orto-, para-propargiloksibenzaldegidlar asosida 1,2,3-triazol hosilalari
sintezi va ularning kimyoviy xossalarini o‘rganish..... 5

Усмонова Саидахон Гуламовна

Синтез производных 1,2,3-триазола на основе орто-, пара-
пропаргилоксибензальдегидов и изучение их химических свойств.... 21

Usmonova Saidaxon Gulamovna

Synthesis of 1,2,3-triazole derivatives based on ortho-, para-
propargyloxybenzaldehydes and investigation of their chemical proper
ties 39

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 43

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDADI
ILMIY DARAJA BERUVCHI DSc.03/30.12.2019K.01.03
RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDA BIR MARTALIK
ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

USMONOVA SAIDAXON GULAMOVNA

**ORTO-, PARA-PROPARGILOKSIBENZALDEGIDLAR ASOSIDA 1,2,3-
TRIAZOL HOSILALARI SINTEZI VA ULARNING KIMYOVIY
XOSSALARINI O‘RGANISH**

02.00.14 – Organik moddalar va ular asosidagi materiallar texnologiyasi

**KIMYO FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.1.PHD/K375 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi O'zbekiston Milliy universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.ik-kimyo.nuu.uz) va "Ziyonet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Abdugafurov Ibragimdjani Azizovich
kimyo fanlari doktori, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Mixamitova Dilorom Xudayberdiyevna
kimyo fanlari doktori, professor

Kadirov Xasan Irgashevich
texnika fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Toshkent farmatsevtika instituti

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019K.01.03 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil "20" aprel soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100174, Toshkent, Universitet ko'chasi, 4-uy. Tel: (998 71) 227-12-24, faks (998 71) 246-53-21; 246-02-24. e-mail: ilmiy_kengash@nuu.uz).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston Milliy universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (24 raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100174, Toshkent, Universitet ko'chasi, 4-uy. Tel.: (998 71) 227-12-24, faks: (998 71) 246-53-21; 246-02-24).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "27" mart kuni tarqatildi.

(2024-yil "26"-martdagi 17-raqamli reyestr bayonnomasi).



Z.A.Smanova

Ilmiy kengash raiisi, k.f.d., professor

N.T. Qutlimurotova

Ilmiy kengash ilmiy kotibi, k.f.d.

A.K. Abdushukurov

Ilmiy seminar qoshidagi ilmiy seminar raiisi, k.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Hozirgi kunda dunyo miqiyosida zaharliliigi kam bo'lgan farmatsevtik preparatlarni sintez qilish va uning texnologiyalarini takomillashtirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, tarkibida uchta azot atomi saqlagan besh a'zoli geterotsiklik birikmalar: 1H-1,2,3-triazol va uning hosilalari yuqori biologik faollikka ega moddalar bo'lib, ulardan tibbiyotda shamollashga, yallig'lanishga, saratonga va silga qarshi preparatlar, qishloq xo'jaligida pestisidlar va biostimulyatorlar, texnikada korroziyaga qarshi ingibitorlar olish muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahonda geterohalqali organik birikmalarni sintez qilish, hosil bo'lgan moddalarning fizik-kimyoviy xossalarini aniqlash va sintez usullarining texnologik sxemasini yaratish bo'yicha katta ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Jumladan, keng biologik faollikni namoyon qiluvchi geterohalqali birikmalardan biri bo'lgan, 1H-1,2,3-triazol hosilalarini sintez qilish, sintez qilish mexanizmlarini takomillashtirish, reaksiya unumiga ta'sir etuvchi omillarni o'rganish, hosil bo'lgan yangi moddalarning tuzilishini zamonaviy fizik tadqiqot usullari bilan aniqlash va ularning kimyoviy hamda biologik xossalarini aniqlash muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Respublikamizda so'nggi yillarda kimyo sanoatida mahalliy xomashyodan samarali foydalangan holda ularning eksport qilinishini, import mahsulotlar ishlab chiqarish, qayta ishlash natijasida hosil bo'lgan ikkilamchi mahsulotlardan to'g'ri foydalanish dolzarb vazifalardan hisoblanadi. Ayniqsa, kimyo sohasi va kimyoviy ishlab chiqarish tarmoqlari ham zamon talablariga mos ravishda tubdan isloh qilinib, mahsulot turlari va kimyo korxonalarining mahsulot ishlab chiqarish hajmini bir necha barobar orttirish muhim hisoblanadi. Bu esa, o'z navbatida, mahalliy, import o'rnini bosuvchi, eksportga yo'naltirilgan istiqbolli mahsulotlar assortimentining ortishiga va ularning sifatining jahon andozalari darajasiga ko'tarilishiga imkon bermoqda. O'zbekiston Respublikasini 2022-2026-yillarda mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida "Kimyo va gaz-kimyosi sohalarini rivojlantirish va tabiiy gazni qayta ishlash darajasini oshirish orqali mahsulot ishlab chiqarish" vazifalari belgilab berilgan. Yuqorida keltirilgan vazifalarni bajarishda triazol hosilalarini sintez qilish va texnologik sxemalarini yaratish muhim o'rin tutadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi farmoni, 2018-yil 17-yanvardagi PQ-3979-sonli "Mamlakat iqtisodiyoti tarmoqlarining talab yuqori bo'lgan mahsulot va xomashyo turlari bilan barqaror ta'minlash chora tadbirlari to'g'risida", 2018-yil 25-oktyabrdagi PQ-3983-sonli "O'zbekiston Respublikasida kimyo sanoatini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari" va 2021-yil 13-fevraldagi PQ-4992-sonli "Kimyo sanoati korxonalarini yanada isloh qilish va moliyaviy sog'lomlashtirish, yuqori qo'shilgan qiymatli kimyoviy mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti natijalari muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining VII. Kimyo, kimyo texnologiyalari va nanotexnologiyalar ustuvor yo‘nalishlariga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. 1,2,3-Triazol hosilalarining sintezi dunyoning ko‘pgina olimlari tomonidan yaxshi o‘rganilgan bo‘lib, ushbu izlanishlar hozirgi vaqtda jadal rivojlanib bormoqda. Katalitik usulda 1,2,3-triazollarning yangi hosilalarini sintez qilish va ular asosida biologik faol birikmalarni yaratish, sanoat texnologiyalarini ishlab chiqish va qo‘llanilish sohasini kengaytirishga yo‘naltirilgan ilmiy izlanishlar R.Huisgen, K.Sharpless, M.Meldal, Z.Tribak, Lu Yang., S.Senthil, Harjinder Singh., F.Himo., A.De Nino, T.Moara, Qiu Mei Chen., Bouasla Souad., Kirsi Harju., Jalol Hasan Muhammad va Yu.V.Grigoryev, G.T.Suxanov kabi olimlar tomonidan izchil olib borilmoqda.

Mazkur tadqiqot yo‘nalishi bo‘yicha 1H-1,2,3-triazol hosilalarini sintez qilish, kimyoviy xossalari va biologik faolligini o‘rganish O‘zbekistonlik A.G.Maxsumov, N.Madixonov, I.A.Abdugafurov, A.D.Djurayev, A.T.Nikbayev, R.Muxammedova, F.B.Qirg‘izov, J.Sh.Mamajonov va boshqa olimlar tomonidan tizimli ishlar olib borilgan. N.Madixonov, I.A.Abdugafurov va A.D.Djurayevlar tomonidan almashingan fenollar, alifatik va aromatik karbon kislotalarning propargil efirlari hamda fenilazid asosida 1,2,3-triazollar sintezi, kimyoviy o‘zgarishlari amalga oshirilgan. A.T.Nikbayev olingan birikmalarning yallig‘lanishga qarshi faolligini, R.Muxammedova esa fungitsidlik xossasini o‘rganib, faol moddalarni klinik sinovlardan o‘tkazganlar. Lekin adabiyotlarda izomer propargiloksibenz-aldegidlar va aromatik azidlar asosida azid-alkin dipolyar siklobirikish reaksiyalariga oid ma‘lumotlar uchramaydi. Shuning uchun yangi 1H-1,2,3-triazol hosilalarining maqsadli sintezini amalga oshirish, biologik faolliklarini aniqlash hamda ularning ishlab chiqarishga oid texnologik sxemalarini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejaları bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston milliy universiteti “Umumiy va neft-gaz kimyo” kafedrasininig istiqbolli rejasi va OT-F-7-56 “Fenol propargil efirlarining izomerizatsiyasini o‘rganish” mavzusidagi 2017-2020-yillarda bajarilgan fundamental loyihaning uzviy davomi sifatida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi orto-, para-propargiloksibenzaldegidlar asosida 1,2,3-triazol hosilalari sintezi va ularning kimyoviy xossalarini o‘rganish hamda texnologik sxemasini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

oksibenzaldegidlarni propargil efirlari va ayrim arilazidlarni 1,3-dipolyar siklobirikishi orqali 1H-1,2,3-triazollarning yangi hosilalarini sintez qilish;

azid-alkin siklobirikish reaksiyasining borishiga, mahsulotning unumiga ta‘sir etuvchi omillarni aniqlash va 1,2,3-triazol hosilalari sintezining maqbul sharoitlarini topish;

sintez qilingan moddalarning tuzilishini zamonaviy fizik tadqiqot usullar yordamida aniqlash;

o'zida formil guruhi saqlagan yangi triazol hosilalarini fenilgidrazin va para-nitrofenilgidrazinlar bilan kondensatsiya reaksiyalarini amalga oshirish;
sintez qilingan yangi birikmalarning biologik faolliklarini o'rganish;
oksibenzaldegidning propargil efirlari va 4-((1-fenil (4-almashingan fenil)-1H-1,2,3-triazol-4-il)metoksibenzaldegidlarni olinish texnologik sxemasini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning obyekti sifatida oksibenzaldegid izomerlari, propargil bromid, aromatik azidlar, 4-((1-almashingan fenil-1H-1,2,3-triazol-4-il)metoksi)benzaldegidlar va ularning hosilalari tanlangan.

Tadqiqotning predmeti 4-((1-almashingan fenil-1H-1,2,3-triazol-4-il)metoksi) benzaldegidlar sinteziga azid-alkin dipolyar siklobirikish reaksiyasini qo'llashdan iborat.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida yupqa qatlamli xromatografiya (YuQX) va nozik organik sintez usullari, IQ-, ^1H va ^{13}C YaMR-spektroskopiya usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ilk bor orto-,para-propargiloksibenzaldegidlar asosida 1H-1,2,3-triazol hosilalari sintezi 1,3-dipolyar siklobirikish mexanizmi asosida amalga oshirilgan;

quydagi qator $\text{H} < \text{Br} < \text{COOH} < \text{NO}_2$ bo'yicha elektromanfiylikni ortib borishi bilan azid guruhining faolligi ortadi, natijada mahsulotning chiqish unumi ham ortishi aniqlangan;

2-((1-almashingan fenil-1H-1,2,3-triazol-4-il)metoksi)benzaldegid reaksiyalarining borishiga erituvchilarning ta'siri o'rganilganda: mahsulotlarning yuqori unumlarda hosil bo'lishida maqbul erituvchi toluol ekanligi asoslangan;

2-((1-almashingan fenil-1H-1,2,3-triazol-4-il)metoksi)benzaldegidlar sintezini amalga oshirishda qo'llanilgan katalizatorlarning quyidagi $\text{Cu}_2\text{Cl} < \text{Cu}_2\text{Br}_2 < \text{Cu}_2\text{J}_2$ qator bo'yicha faolliklarining ortishi aniqlangan;

fenilgidrazin molekulasidagi aromatik halqaga elektronoakseptor – nitro guruhining kiritilishi amino guruhning nukleofilligini kamaytiradi. Shuning uchun fenilgidrazin aldegidlar bilan para-nitrofenilgidrazinga nisbatan osonroq reaksiyaga kirishishi dalillangan;

oksibenzaldegidlarning propargil efirlari va 4-((1-fenil (4-almashingan fenil)-1H-1,2,3-triazol-4-il)metoksibenzaldegidlarni olinish texnologik sxemasi ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

1H-1,2,3-triazol hosilalari sintezida katalizator sifatida mis (I) galogenidlaridan foydalanilganda reaksiya selektiv borib, asosan, 1,4-izomer mahsulotlarning yuqori unumlarda hosil bo'lishi aniqlangan;

biologik faolligi o'rganish maqsadida orto- va para holatda o'rinbosar tutgan oksipropargil efirlarining fenil azid asosida olingan 1,2,3-triazol hosilalari yuqori faollikka ega ekanligi asoslangan;

yangi sintez qilingan 4-((1-fenil-1H-1,2,3-triazol-4-il)metoksi)benzaldegid diabetning alloksan modelida qondagi glyukoza darajasini pasaytirish va glikogen sintezini oshirish orqali gipoglikemik faollikka ega ekanligi, shuningdek, ko'plab

boshqa hosilalar metall konstruksiyalardagi biokorroziyaga qarshi xususiyatlarga ega ekanligi aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Zamonaviy IQ-, ^1H va ^{13}C YaMR-spektroskopiya, xromatografik (yupqa qatlamli xromatografiya (YuQX)) va boshqa tadqiqot usullaridan olingan natijalar asosida ishonchli tarzda tahlil qilingan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, ilk bor izomer propargiloksibenzaldegidlarni ayrim aromatik azidlar bilan 1,3-dipolyar siklobirikish reaksiyalari asosida 1,2,3-triazollarning katalitik sintezi va kimyoviy o'zgarishlari amalga oshirilgan, olingan 36 ta yangi moddalar 1,2,3-triazollar kimyosini yangi ma'lumotlar asosida boyitishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, sintez qilingan birikmalar orasida nozik organik sintezda reagent sifatida, tibbiyotda qandli diabetga qarshi va metall konstruksiyalar hamda qurilmalardagi biokorroziya keltirib chiqaruvchi bakteriyalarga qarshi ingibitor sifatida qo'llash mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Yangi sintez qilingan 1,2,3-triazol hosilalari va ularning kimyoviy xossalarini o'rganish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

sintez qilingan birikmalardan 2((1-fenil-1H-1,2,3-triazol-4-il)metoksi)benzaldegid, 2((1-(4-bromfenil-1H-1,2,3-triazol-4-il)metoksi)benzaldegid, 2((1-(4-nitrofenil-1H-1,2,3-triazol-4-il)metoksi)benzaldegid, 2-(4-(2-formilfenoksime-til)-1H-1,2,3-triazol-1-il)benzoy kislota, 4-((1-fenil-1H-1,2,3-triazol-4-il)metoksi)benzaldegid, 4-((1-bromfenil-1H-1,2,3-triazol-4-il)metoksi)benzaldegid, 4-((1-nitrofenil-1H-1,2,3-triazol-4-il)metoksi)benzaldegid, 2-(4-(2-formilfenoksi-metil)-1H-1,2,3-triazol-1-il)benzoy kislota, 4-(4-(4-formilfenoksime-til)-1H-1,2,3-triazol-1-il)benzoy kislota "Muborak gazni qayta ishlash" zavodi MCHJ da metall konstruksiyalar va qurilmalarda korroziya jarayoniga qarshi ingibitor sifatida amaliyotga joriy etilgan (Muborak gazni qayta ishlash zavodining 2023-yil 12-apreldagi №VP5/UT-2018-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, olingan birikmalar metall konstruksiyalari va qurilmalarining ekspluatatsion muddatini uzaytirish imkonini bergan;

orto-, para-propargiloksibenzaldegidlar asosida sitez qilingan 1,2,3-triazol va uning hosilalari, ularning kimyoviy xossalarini o'rganish texnologiyasi asosida geterotsiklik birikmalarining yangi birikmalarini sintez qilish Tojikiston Milliy akademiyasining V.I.Nikitin nomidagi kimyo instituti "Organik sintez" laboratoriyasida amaliyotda qo'llanilgan (V.I.Nikitin nomli kimyo institutining 2023-yil 24-apreldagi № 4/10-sonli ma'lumotnomasi).

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 13 ta, jumladan, 3 ta xalqaro va 10 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma'ruza qilingan hamda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 17 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 3 ta maqola respublika, 1 ta

maqola xorijiy va xalqaro jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, 3ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Ish kompyuter matnida yozilgan bo'lib 120 betni tashkil qiladi.


DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

KIRISH qismida o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslab berilgan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti va predmetlari tavsiflangan, O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari yoritilgan, natijalarni amaliyotga joriy qilish hamda nashr etilgan ilmiy ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.


Dissertatsiyaning "**1,2,3-Triazollar sintezi va xossalari**" deb nomlangan **birinchi bobida** turli xil organik azidlarni alkinlar bilan o'zaro 1,3-dipolyar siklobirikish reaksiyalari natijasida 1,2,3-triazollarni sintez qilib olish usullari va ularning kimyoviy xossalari, ularga ta'sir etuvchi omillar biologik faolliklarini o'rganishga doir ma'lumotlar tahlil qilingan. Ushbu umumlashtirilgan ma'lumotlar asosida ilmiy-tahliliy xulosalar chiqarilgan hamda ular asosida dissertatsiya ishining maqsadi, vazifalari, dolzarbligi va muhimligi belgilab berilgan.


Dissertatsiyaning "**Olingan natijalarning tahlili**" deb nomlangan **ikkinchi bobida** tadqiqot natijalari keltirilgan. Boshlang'ich modda sifatida olingan oksibenzaldegidlarni propargil efirlari va aromatik azidlarni sintez qilish usullari, ular asosida 1H-1,2,3-triazol hosilalari va ularning kimyoviy-biologik xossalari hamda faol birikmalar olish texnologik sxemasi keltirilgan.

Boshlang'ich moddalar sintezi. Dastlab, boshlang'ich moddalardan oksibenzaldegidlarni (1-3) propargil bromid bilan alkilash reaksiyalari orqali amalga oshirilib oksibenzaldegidlarni propargil efirlari sintez qilib olindi (4-6).




Fenilazid fenilgidrazinni diazotirlash reaksiyasi orqali olingan bo'lsa (4), para-holatda o'rinbosar saqlagan azidlar tegishli anilin hosilalaridan olindi.





Propargiloksibenzaldegidlar va organik azidlar asosida 1H-1,2,3-triazol hosilalarining katalitik sintezi. Tadqiqotlarni rivojlangan usul- mis azid-alkin siklobirikish (CuAAS) mexanizmi asosida davom ettirildi. Reaksiya selektiv borib, faqat 1,4-dialmashingan 1H-1,2,3-triazol hosilalarini yuqori unumlarda olishga erishildi. Reaksiya qaytarma sovutgich o'rnatilgan moy hammomida, qutbsiz erituvchilarda 6-8 soat davomida mis (I) galogenidlari (Cu₂Cl₂, Cu₂Br₂, Cu₂I₂) katalizatorligida qizdirish bilan olib borildi. Olingan mahsulotlarni toza holda ajratib olishda etanol, geksan va siklogeksan kabi erituvchilaridan qayta kristallashda foydalanildi.



Tadqiqotlar davomida mahsulot unumiga erituvchilarning ta'sirini o'rganish maqsadida geksan, benzol, toluol, orto-ksilollar erituvchilarida olib borildi. Reaksiyaning borishi har bir soatda yupqa qavatli xromatografiya (YuQX) yordamida tekshirib borildi. Ushbu erituvchilar orasida toluol eng samarali erituvchi sifatida tanlab olindi. Najalar 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval.

Orto-propargiloksibenzaldegidlar asosida olingan 1H-1,2,3-triazollar hosil bo'lish unumiga va reaksiyaning davomiyligiga erituvchilarning ta'siri

№	Erituvchilar	Harorat	Reaksiyaning davomiyligi	Reaksiya unumi (%)
1	Geksan	69	10-18	8-10
2	Benzol	80	12-16	30-33
3	Toluol	110	6-8	79-87
4	o-Ksilol	144	6-8	75-85

Tadqiqotlar davomida mahsulot unumiga katalizatorlarning ta'sirini o'rganish maqsadida – reaksiyalar turli xil vaqt davomida mis (I) galogenidlari: Cu₂Cl₂, Cu₂Br₂ va Cu₂I₂ tuzlarini qo'llab olib borildi. Olingan natijalar asosida katalizatorlarning faolligi quyidagi tartibda ortib borishi kuzatildi: Cu₂Cl₂ < Cu₂Br₂

< Cu₂I₂. Reaksiya konversiyasi va mahsulot unumiga katalizatorlarning ta'siri 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval.

8-11-moddalarning hosil bo'lish reaksiyalarining (halqalanish) tezligi va unumiga katalizatorlarning ta'siri

№	Katalizator	Reaksiyaning optimal vaqti (soat)	1,4-izomer hosil bo'lish unumi %	№	Katalizator	Reaksiyaning optimal vaqti (soat)	1,4-izomer hosil bo'lish unumi %
8	Cu ₂ Cl ₂	9	94	10	Cu ₂ Cl ₂	9	95
	Cu ₂ Br ₂	7	96		Cu ₂ Br ₂	7	99
	Cu ₂ I ₂	6	98		Cu ₂ I ₂	6	100
9	Cu ₂ Cl ₂	9	93	11	Cu ₂ Cl ₂	9	96
	Cu ₂ Br ₂	7	97		Cu ₂ Br ₂	7	99
	Cu ₂ I ₂	6	100		Cu ₂ I ₂	6	100

Arilazid molekulasida elektronoakseptor o'rinbosarning bo'lishi uning reaksiya qobiliyatini kamaytiradi. Orto-, para-propargiloksibenzaldegidlarga arilazidlarni 1,3-dipolar siklobirikish reaksiyasining borishiga eng maqbul katalizator mis (I) yodid ekanligi aniqlandi. Mahsulotni chiqish unumi azid molekulasidagi o'rinbosarlarni quyidagi qatori H<COOH<Br<NO₂ bo'yicha ortib borishi kuzatildi.

Sintez qilib olingan moddalarni tuzilishi IQ-, ¹H YaMR-, ¹³C YaMR-spektrlari yordamida isbotlandi. Sintez qilingan yangi 1H-1,2,3-triazollarning ba'zi fizik kattaliklari 3-jadvalda keltirilgan.


3-jadval

1,2,3-triazollarning ba'zi fizik konstantalari

№	Tuzilish formulasi	Unum, %	R _f	T _{suyuq} , °C	IQ-spektr (ν, sm ⁻¹)				
					ν C(=O)H	ν C=O	ν C=C	ν N=N	ν C-O
8	C ₁₆ H ₁₃ N ₃ O ₂	79	0,67	138-140	2802	1686	1599	1507	1404
9	C ₁₆ H ₁₂ N ₃ BrO ₂	85	0,79	199-200	2880	1685	1601	1499	1403
10	C ₁₆ H ₁₂ N ₅ O ₄	87	0,63	258-259	2739	1684	1605	1576	1391
11	C ₁₇ H ₁₃ N ₃ O ₄	83	0,16	289-290	2733	1682	1605	1578	1393
12	C ₁₆ H ₁₃ N ₃ O ₂	79	0,75	97-98	2736	1689	1604	1577	1385
13	C ₁₆ H ₁₂ N ₃ BrO ₂	82	0,77	160-161	2736	1691	1604	1578	1390
14	C ₁₆ H ₁₂ N ₅ O ₄	87	0,62	197-198	2750	1692	1603	1580	1395
15	C ₁₇ H ₁₃ N ₃ O ₄	83	0,15	240-241	2911	1640	1596	1578	1393
16	C ₁₆ H ₁₂ N ₃ BrO ₂	84	0,71	188-189	2736	1689	1604	1577	1385
17	C ₁₆ H ₁₁ N ₃ Br ₂ O ₂	81	0,43	235-236	2804	1678	1618	1588	1392
18	C ₁₆ H ₁₁ N ₅ BrO ₄	78	0,74	232-233	2738	1675	1619	1591	1393
19	C ₁₇ H ₁₂ N ₃ BrO ₄	68	0,64	269-270	2734	1682	1603	1589	1388

***Izoh:** sistema (benzol:methanol-5:1 va benzol ateton 4:1);** etanolda qayta kristallangan.


8-moddaning IQ-spektri tahlil qilinganda tegishli 3118 (Ar(=C-H)), 2802 (C(=O)-H), 1686 (C=O), 1599 (C=C), 1507 (N=N), 1404 (C-O), 1245 (C-N) sohalarda yutilish chastotalariga ega bo'lib, molekuladagi barcha funksional guruhlar mavjudligini to'liq tasdiqlaydi (1-rasm).



1-rasm. 2-((1-Fenil-1H-1,2,3-triazol-4-il)metoksi)benzaldegidning (**8**) IQ-spektri.


2-((1-Fenil-1H-1,2,3-triazol-4-il)metoksi)benzal-degidning (**8**) tuzilishi ^1H YaMR- va ^{13}C YaMR-spektrlari orqali isbotlandi.

^1H YaMR-spektrida (CDCl_3) fenil guruhi va triazol halqasini bog'lab turuvchi metilen guruhi protonlari nisbatan kuchsiz sohada – 5.36 m.u. da ikki protonli singlet holida tegishli kimyoviy siljishga (2H, s, $-\text{OCH}_2$) ega. Molekuladagi benzol halqasi protonlari 7.03 m.u. (1H, t, $J=7.4$, H-5) sohada bir protonli triplet, 7.14 m.u. (1H, d, $J=8.4$, H - 4') sohada bir protonli dublet, 7.38 m.u. (1H, t, $J=5.8$, H-3) sohada bir protonli triplet 7.47 m.u. (3H, dd, $J= 6.4$, H-4, 3', 5') sohada uch protonli dublet-dublet, 7.67 m.u. (2H, d, $J=8.4$, H- 2', 6') sohada ikki protonli dublet, 7.77 m.u. (1H, d, $J=7.7$, H - 6) sohada esa bir protonli dublet holida kimyoviy siljishga ega. Triazol halqasidagi proton (C-H) bir protonli singlet holida (1H, s) kuchsiz 8.06 m.u. sohada, formil guruhiga tegishli proton esa singlet holida ancha kuchsiz sohada 10.43 m.u. da (1H, s, $-\text{CHO}$) namoyon bo'ladi (2-rasm).




2-rasm. 2-((1-Fenil-1H-1,2,3-triazol-4-il)metoksi)benzaldegidning (**8**) ¹H YaMR-spektri.

8-Moddanning ¹³C YaMR-spektrida metilen guruhidagi uglerod 62.63 sohada, aromatik va geterotsiklik halqa uglerodlari 113 dan-161 gacha bo'lgan sohalarda, formil guruhiga tegishli uglerod esa 189.65 m.u. sohada kimyoviy siljishga ega bo'lganligini ko'rishimiz mumkin (3-rasm).




3-rasm. 2-((1-Fenil-1H-1,2,3-triazol-4-il)metoksi)benzaldegidning (**8**) ¹³C YaMR-spektri.


Olingan barcha spektr natijalari **8**-moddaning tegishli strukturaga mos ekanligini to'liq isbotlaydi. Qolgan- **9-11**-moddalarning ham tuzilishi IQ-, ^1H YaMR-, ^{13}C YaMR-spektrlari orqali o'rganildi va keltirilgan strukturaga mos ekani tasdiqlandi. Quyida **10**-, **11**-moddalarning ^1H YaMR-spektrida protonlarning kimyoviy siljishlari va **8**-moddaning ^{13}C YaMR-spektridagi uglerodlarning kimyoviy siljishi keltirilgan.



1,2,3-Triazolarning hosil bo'lish mexanizmi. Sintez qilib olingan para-propargiloksibenzaldegidlar uchun CuAAS reaksiyasining samaradorligi va selektivligi reaksiyaning oraliq bosqichida hosil bo'ladigan mis (**I**) asetilenidlarining yuqori reaksiyon qobiliyati tufayli kelib chiqadi (**2**). Organik azidni asetilenidning mis markaziga ta'siri (**3**) uch bog'ning nukleofilligini oshiradi va reaksiyaning ketma-ket boradigan bosqichlarini boshlaydi. Bunda asetilenidlarining nukleofil β -uglerod atomi va azidlarning uchinchi azot atomi o'rtasida yangi C-N bog' hosil bo'ladi hamda olti a'zoli mis metallohalqa (**4**) hosil qiladi. So'ngra u beqaror besh a'zoli mis (**I**) triazolid (**5**)ga aylanib, alkil va triazolid o'rtasida proton almashinuvi sodir b'lib, 1,4-dialmashingan 1H-1,2,3-triazollarni (**6**) hosil qiladi:



1H-1,2,3-triazol hosilalari ning fenilgidrazin va para-nitrofenilgidrazinlar bilan kondensatsiya reaksiyasi. Olingan yangi 1,2,3-triazol hosilalarining kimyoviy xossalari o'rganish maqsadida etanol ishtirokida kondensatsiya reaksiyasi amalga oshirildi. Reaksiya natijasida gidrazonlar hosil bo'ldi. Reaksiyaning borishi quyidagi sxemada keltirilgan:



Olingan hosilalarning tuzilishi IQ- va ¹H YaMR-spektri orqali tahlil qilindi.

Quyidagi jadvalda IQ-spektri tahlili keltirilgan (4-jadval). Jadvaldan ma'lumki, karbonil guruhga xos bo'lgan yutilish chiziqlari yo'qolganligi kuzatildi.

4-jadval

Ayrim gidrozonlarning fizik konstantalari va IQ-spektrdagi xarakterli yutilish sohalari


№	Brutto formulasi	IQ-spektrlarni yutilishlari, v, sm ⁻¹								
		T _{suyuq.} , °C	R _f [*] qiymati	Unum, %	C-O-C	C=N	N-H	C-N	N=N	
20	C ₂₂ H ₁₉ N ₅ O	110-112	s	0.76	85	1290	1685	3157	1245	1499
21	C ₂₂ H ₁₈ BrN ₅ O	266-268	b	0.71	84	1291	1682	3192	1236	1497
22	C ₂₂ H ₁₈ N ₆ O ₃	240-241	a	0.61	81	1291	1680	3198	1236	1486
23	C ₂₃ H ₁₉ N ₅ O ₃	200-202	a	0.38.	80	1289	1612	3217	1241	1484
24	C ₂₂ H ₁₉ N ₅ O	194-195	a	0.67	89	1267	1595	3266	1237	1496
25	C ₂₂ H ₁₈ BrN ₅ O	260-262	b	0.71	86	1271	1595	3269	1231	1496
26	C ₂₂ H ₁₈ N ₆ O ₃	230-232	d	0.58	88	1269	1594	3274	1234	1498
27	C ₂₃ H ₁₉ N ₅ O ₃	218-220	b	0.47	81	1280	1591	3228	1234	1489
28	C ₂₂ H ₁₈ BrN ₅ O	146-148	s	0.78	79	1278	1672	3214	1183	1498
29	C ₂₂ H ₁₇ Br ₂ N ₅ O	245-246	a	0.65	81	1274	1677	3152	1181	1591
30	C ₂₂ H ₁₇ BrN ₆ O ₃	176-178	a	0.75	71	12 69	1621	3228	1176	1521
31	C ₂₃ H ₁₈ BrN ₅ O ₃	172-174	b	0.44	68	1266	1615	3197	1168	1536

Izoh: sistema **a** benzol : aseton – 4:1; **b** benzol :aseton – 1:1; **s** benzol :metanol – 5:1; **d** benzol :aseton – 5:1.

Olingan (24) moddaning ¹H YaMR-spektri (DMSO-d₆+CCl₄) tahlil qilinganda fenilen va triazol halqasini bog'lab turuvchi oksimetilen guruhi protonlari 5,22 m.u. sohada-ikki protonli intensivlikda singlet (2H, s, -OCH₂-) ko'rinishda namoyon bo'ldi (4-Rasm). Bu yon ta'sirlashuvchi protonlar yo'qligini ko'rsatdi. Molekuladagi gidrazin azoti bilan bog'langan fenil guruhining 4-holatdagi vodorodi 6.64 m.u. da bir protonli triplet holida, 2,3,5 va 6-protonlari esa 7,00 m.u. sohada to'rt protonli triplet holida ko'rindi. Molekula markazidagi fenilen guruhining protonlari 7,11 m.u. va 7,87 m.u. sohalarda ikki protonli triplet holida, triazol halqasiga bog'langan fenil guruhining 4-protoni 7.41 m.u. da bir protonli triplet holida, 2,3,5,6-protonlari esa 7,53 m.u. da to'rt protonli multiplet holida kimyoviy

siljishga ega bo'lgan aromatik protonlarga xos signallar hosil qildi. Triazol halqasidagi proton 7,76 m.u. sohada singlet holida, -N=CH- guruhidagi vodorod 8.77 m.u. sohada bir protonli singlet, -NH-N= guruhidagi vodorod past intensivlikda 9.92 m.u. sohada bir protonli singlet holida namoyon boldi. ¹H YaMR-spektrdagi signallar molekuladagi protonlar soniga mos kelishi tuzilishni to'liq tasdiqlaydi.

Ortikov_TC-50
1H_DMSO-d6+CCl4_15042021_400 MHz



4-rasm. 1-Fenil-4-((4-((2-fenilgidraziniliden) metil)fenoksi)metil)-1H-1,2,3-triazol (**24**) ¹H YaMR-spektri.

Shunday qilib, oksipropargilbenzaldegid asosida olingan triazol hosilalarida gidrazinlar bilan kondensatsiya reaksiyasini borishi aldegid bog'i yo'qolib azometin (C=N) bog'i hosil bo'ladi. Hosil bo'lgan birikmaning tuzilishi ¹H YaMR-spektri yordamida tasdiqlandi.

Sintez qilingan birikmalarning amaliy ahamiyati. Yaqin davrgacha 1,2,3-triazol hosilalarini istiqboli yo'q birikmalar deb qaralar edi. Ammo so'ngi 20-30 yil ichida ularning biologik faolligini o'rganish keng ko'lamda olib borilishi natijasida juda qimmatli ma'lumotlar to'plandi.

Sintez qilingan yangi 1H-1,2,3-triazol hosilalarini foydali xususiyatlarini aniqlash maqsadida TS-27 moddasining alloksan diabetda qonda glyukoza miqdoriga hamda qon plazmasida triglitserid va insulin miqdoriga ta'siri, shuningdek, 2((1-fenil-1H-1,2,3-triazol-4-il)metoksi) benzaldegid, 4-((1-fenil (4-almashingan fenil)-1H-1,2,3-triazol-4-il)metoksi)benzaldegidlarni metall korroziyasini ingibitorlovchi xossaga ega ekanligi aniqlandi.

Diabetga qarshi faolligi. Sintez qilingan yangi triazol hosilalaridan TS-27 birikmasi kalamushlarda alloksan preparati yordamida sun'iy chaqirilgan diabetga ta'siri o'rganilganda qondagi glyukoza miqdori 18,5 mmol/l dan 7,7 mmol/l ga kamayganligi kuzatildi.

So‘nggi vaqtlarda eksperimental diabet chaqirishning ko‘plab usullari yaratilgan bo‘lib, ulardan tadqiqotlarda keng qo‘llanib kelinayotgan alloksan diabet modelidan foydalanildi.

Tadqiqotlarda alloksan diabet guruhi chaqirilgan hayvonlarga 1,2,3-triazollarning yangi hosilasi 2-((1-fenil-1H-1,2,3-triazol-4-il)metoksi) benzaldegid (TS-27) (15 mg/kg) 10 kun davomida peroral yuborildi. Farmakoterapiya qilingan hayvonlarning qondagi glyukoza miqdori har 3 kunda tekshirib borildi. Olingan natijalarga ko‘ra, nazorat guruhi hayvonlarning qonidagi glyukoza miqdorida dinamika kuzatilmadi va 5,7 mmol/l ni tashkil etdi. Alloksan yuborilgandan so‘ng 12 kun o‘tib II va III guruh hayvonlarning qonidagi glyukoza miqdori 11 mmol/l dan ortib ketganligi aniqlandi. Ushbu III guruh hayvonlariga 10 kun davomida TS-27 yuborilgandan so‘ng ularning qonidagi glyukoza miqdori 7,7 mmol/l ni tashkil etdi. II guruh, ya‘ni alloksan diabetli hayvonlarning qonidagi glyukoza miqdori esa 18,5 mmol/l ga yetganligi kuzatildi (7-jadval). 1,2,3-Triazollarning TS-27 yangi hosilasi alloksan diabet sharoitida kalamushlar qon plazmasidagi glyukoza miqdorini kamaytirib gipoglikemik xossasini namoyon qildi. Bunda, TS-27 moddasi gipoglikemik hossasi yaqqol namoyon bo‘lganligi aniqlandi.

7-jadval

Alloksan diabetda kalamush qon plazmasidagi glyukoza va jigar to‘qimasidagi glikogen miqdoriga TS-27 ning ta’siri (M±m)

№	Hayvon guruhlari	Glikogen miqdori (tana vazniga nisbatan mg/100 g)	Glyukoza miqdori (mmol/l)
I	Nazorat (Intakt)	781,8±41,4	5,7±0,8
II	Alloksan diabet	389,2±20,1**	18,5±1,4**
III	Alloksan diabet+TS-27	639,2±32,6*	7,7±0,9*


Izoh: *P<0,05; **P<0,01; n=6

Antikorrozion xossasi. Sintez qilib olingan moddalardan bir qanchasini Muborak neft va gaz qazib chiqarish boshqarmasi qoshidagi Markaziy laboratoriyasida metall konstruksiya hamda qurilmalarda korroziya jarayoniga qarshi ingibitorlik xossasini aniqlash maqsadida sinovdan o‘tkazildi. Bu birikmalar metall konstruksiyalari va qurilmalarining korroziyasiga qarshi ingibitor sifatida ishlatiladigan “CONQOR 404” preparatiga solishtirib o‘rganilganda moddalardan 2-((1-fenil-1H-1,2,3-triazol-4-il)metoksi) benzaldegid hamda 4-((1-fenil-1H-1,2,3-triazol-4-il)metoksi)benzaldegidlar “CONQOR 404”ga yaqin effektiv ingibitor ekanligini ko‘rsatdi.

Dissertatsiyaning “*Oksibenzaldegidpropargil efirlari va 4-((1-Fenil (4-almashingan fenil)-1H-1,2,3-triazol-4-il)-metoksibenzaldegidlarni olinish texnologik sxemasi*” deb nomlangan qismida oksibenzaldegiddan olingan oksibenzaldegidpropargil efirlari va 4-((1-fenil(4-almashingan fenil)-1H-1,2,3-triazol-4-il)-metoksibenzaldegidlarni sintez qilish texnologiyasi ishlab chiqilgan. Texnologik jarayon uzlikli ishlaydi va quyidagicha tavsiflanadi (5-rasm).

Dastlab aralashtirgich o‘rnatilgan reaktor (1) ga o‘lchangan miqdorda erituvchi asetonitril va teterabutillammoniy bromid (TBAB) (2) aralashmasi

quyiladi. Harorat 80 °C ga yetganda reaksiyon aralashmaga aralashtririb turgan holda, o'lchab olingan miqdordagi para-oksibenzaldegid (3) va K₂CO₃ (5) solinadi. 4-Sig'imdan o'lchangan miqdordagi propargilbromid quyiladi. Reaksiyon aralashma 6 soat davomida aralashtririlib turiladi. So'ngra, qaynoq arashmani K₂CO₃ dan ajratish uchun filtr (6) dan o'tkazilib nasos (7) orqali sovuq suv bilan sovutib filtrlash (8) qurilmasiga o'tkaziladi. 8-Qurilmada aralashma sovutiladi va aralashma filtirlab olinadi hamda fenol qoldiqlaridan tozalash uchun dastlab (9) sig'imdan yuboriladigan ishqor eritmasida, so'ngra (10) sig'imdan keladigan suv bilan yuviladi. Xom mahsulot qayta kristallash uchun nasos yordamida (12) qurilmaga o'tkazilib, (11) sig'imdan keladigan siklogeksanda qayta kristallanadi va aralashtririb turgan holda sovuq suv bilan yuvib sovutiladigan (8) qurilmaga o'tkaziladi. 8-Qurilmada aralashma sovutiladi va mahsulot filtirlanib, tayyor mahsulot (14) bo'limiga o'tkaziladi.




5-rasm. Para-oksibenzaldegid propargil efirini olinish texnologik sxemasi.

1 – Reaktor; 2 – asetonitril va TBAB aralashmali sig'im; 3 – para-oksibenzaldegidli sig'im; 4 – propargilbromidli sig'im; 5 – K₂CO₃ uchun sig'im; 6 – filtr; 7 – nasos; 8 – sovutib filtrlash qurilmasi; 9 – ishqorli sig'im; 10 – suvli sig'im; 11 – siklogeksanli sig'im; 12 – qayta kristallash uchun eritish qurilmasi; 13 – vakuum nasos; 14 – tayyor mahsulot uchun sig'im.

O'lchangan miqdordagi toluol (3) sig'imdan sovutgich (6) bilan jihozlangan elektr qizdirgichli reaktor (1) ga quyilib 120°C gacha qizdiriladi. Ustiga 4-sig'imdan oksibenzaldegidning propargil efiri aralashtririb turgan holda dozatorli idish (2) dan katalizator Cu₂I₂, so'ngra arilazid (5) qoshiladi. Jarayon 6-8 soat davom etadi, so'ngra qaynoq holda (7) filtr yordamida filtirlanib katalizator ajratiladi. Filtrat nasos (8) orqali sovutib filtrlash qurilmasi (9) ga haydaladi. Tushgan kristallar 10-sig'imdan kelayotgan toluolda yuvilib vakuumda filtirlanadi. Xom mahsulot qayta kristallash qurilmasi (12) ga o'tkazilib, 11-sig'imdan kelayotgan geksanda qayta kristallanadi va nasos (8) yordamida sovutib filtrlash qurilmasi (9) ga haydaladi. 9-qurilmada sovutiladi, so'ngra tushgan kristallar filtrlanib 13-vakuum nasos yordamida tayyor mahsulot bo'limi (14) ga o'tkaziladi.

Ikkinchi mahsulot 4-((1-fenil (4-almashingan fenil)-1H-1,2,3-triazol-4-il)-metoksibenzaldegidlarni olinish texnologik jarayon uzlikli ishlaydi va quyidagicha tavsiflanadi (6-rasm).



6-rasm. 4-((1-fenil (4-almashingan fenil)-1H-1,2,3-triazol-4-il)-metoksibenzaldegidlarni olinish sxemasi.

1 – Raktor; 2 – Cu_2I_2 li sig‘im; 3 – toluolli sig‘im; 4 – oksibenzaldegidpropargil efirli sig‘im; 5-arilazidli sig‘im; 6 – sovitgich; 7 – filtr; 8 – nasos; 9 – sovitib filtirlash qurilmasi; 10 – toza toluolli sig‘im; 11 – geksanli sig‘im; 12 – qayta kristallash uchun eritish qurilmasi; 13 – vakuum nasos; 14 – tayyor mahsulot qurilmasi.

Dissertatsiyaning “**Tajribaviy qism**” deb nomlangan uchinchi bobi sintez qilingan moddalarning tadqiqot usullari qismi bo‘lib, tadqiqotlarni olib borish uchun boshlang‘ich moddalar sintezi, 1,2,3-triazol hosilalarini olish va olingan birikmalarning kimyoviy hossalarni o‘rganish maqsadida kondensatsiya reaksiyalarini amalga oshirish usullari keltirilgan.

XULOSALAR

1. Almashingan aromatik azidlar va propargiloksibenzaldegid izomerlari orasida o‘zaro azid-alkin dipolyar siklobirikish reaksiyalari asosida birinchi marta 12 ta yangi 1,2,3-triazol hosilalari sintez qilindi. Reaksiyani borishiga ta‘sir etuvchi omillar (erituvchi, harorat va katalizator) aniqlandi va mahsulotni yuqori unumda chiqadigan maqbul sharoitlari taklif etildi.

2. Azid-alkin dipolyar siklobirikish reaksiyasi mis (I) galogenidlari ishtirokida olib borilganda katalizatorlarning $\text{Cu}_2\text{Cl}_2 < \text{Cu}_2\text{Br}_2 < \text{Cu}_2\text{I}_2$ qatorida faollikning ortishi bilan 1,4-izomer mahsulotlarni yuqori unumlar bilan sintez qilish usuli tavsiya qilindi.

3. Fenilgidrazin molekulasidagi aromatik halqaga elektronoakseptor – nitro guruhining kiritilishi amino guruhning nukleofilligini kamaytirib, fenilgidrazinning aldegidlar bilan para-nitrofenilgidrazinga nisbatan osonroq reaksiyaga kirishishi aniqlandi.

4. Sintez qilingan triazollar va ularning arilgidrazinlar bilan reaksiyasi natijasida olingan 24 ta gidrazonlarning tuzilishi IQ-, ^1H hamda ^{13}C YaMR-

spektroskopiya kabi usullarda tasdiqlandi va spektrall tahlil natijalari organik kimyoda qo'llash uchun tavsiya etildi.

5. Sintez qilingan TS-27 birikmani qandli diabetga qarshi faolligi aniqlandi va uning alloksanli diabetda qondagi glyukoza miqdorini kamaytirib, glikogen sintezini oshirib gipoglikemik faollikka ega ekanligi isbotlandi.

6. Sintez qilingan 2-((1-fenil-1H-1,2,3-triazol-4-il)metoksi)benzaldegid hamda 4-((1-fenil-1H-1,2,3-triazol-4-il)metoksi)benzaldegidlarni antikorrozion xossalari aniqlandi va sintez qilingan preparatlar metall korroziyasini ingibirlovchi effekti amalda qo'llanilayotgan "CONQOR 404" ingibitori faolligiga yaqin ekanligi tasdiqlandi.

7. Birinchi marta oksibenzaldegid propargil efirlari va ular asosida 1,2,3-triazol hosilalarini olish texnologik sxemasi ishlab chiqildi hamda jarayon uchun materiallar balansi hisoblandi.

**РАЗОВЫЙ НАУЧНЫЙ СОВЕТ НА ОСНОВЕ НАУЧНОГО СОВЕТА
DSc.03/30.12.2019.K.01.03 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ
ПРИ НАЦИОНАЛЬНОМ УНИВЕРСИТЕТЕ УЗБЕКИСТАНА**

НАЦИОНАЛЬНЫЙ УНИВЕРСИТЕТ УЗБЕКИСТАНА

УСМОНОВА САИДАХОН ГУЛАМОВНА

**СИНТЕЗ ПРОИЗВОДНЫХ 1,2,3-ТРИАЗОЛА НА ОСНОВЕ ОРТО-,
ПАРА-ПРОПАРГИЛОКСИБЕНЗАЛЬДЕГИДОВ И ИЗУЧЕНИЕ ИХ
ХИМИЧЕСКИХ СВОЙСТВ**

02.00.14- Технология органических вещества и материалов на их основе

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)
ПО ХИМИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Ташкент – 2024

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Кабинете Министров Республики Узбекистан за номером B2021.1.PhD/K375.

Диссертация выполнена в Национальном университете Узбекистана
Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета www.ik-kimyو.nuuз.uz и на Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» по адресу www.ziynet.uz.

Научный руководитель: Абдугафуров Ибрагимджан Азизович
доктор химических наук, доцент

Официальные оппоненты: Мирхамитова Дилором Худайбердиевна
доктор химических наук, профессор

Кадиров Хасан Иргашевич
доктор технических наук, профессор

Ведущая организация: Ташкентский фармацевтический институт

Защита диссертации состоится “ 20 ” апреля 2024 года в “10⁰⁰” часов на заседании Научного совета DSc.03/30.12.2019K.01.03 при Национальном университете Узбекистана (Адрес: 100174, Ташкент, ул. Университетская 4, Тел: (998 71) 227-12-24; факс: (998 71) 246-53-21, 246-02-24. e-mail: ilmiy_kengash@nuu.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Национального университета Узбекистана за № 24 (Адрес: 100174, Ташкент, ул. Университетская 4, Тел: (998 71) 227-12-24; факс: (998 71) 246-53-21, 246-02-24.

Автореферат диссертации разослан “ 27 ” марта 2024 года.
(реестр протокол рассылки № 17 от “ 26 ” марта 2024 года).



[Handwritten signature]

З.А. Сманова
Председатель научного совета по
присуждению учёных степеней,
д.х.н., профессор

Н.Х. Кутлимуротова
Секретарь научного совета по
присуждению учёных степеней, д.х.н.

А.К. Абдушукуров
Председатель научного семинара при научном
совете по присуждению учёных степеней,
д.х.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация к диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В настоящее время во всем мире внимание уделяется синтезу менее токсичных фармацевтических препаратов и совершенствованию их технологий. В частности, 1H-1,2,3-триазол и его производные обладают высокой биологической активностью из пятичленных гетероциклических соединений, содержащих три атома азота и имеющих важное значение при приготовлении препаратов от простуды, воспалений, рака и туберкулеза в медицине, пестицидов и биостимуляторов в сельском хозяйстве, ингибиторов коррозии в технике.

В мире проводятся широко масштабные исследования по синтезу производных 1H-1,2,3-триазолов на основе механизма 1,3-диполярного циклоприсоединения и изучению факторов, влияющих на выход продуктов, определению их структуры современными физическими методами исследования, а также химические и научные исследования по изучению их биологических свойств, что является важнейшими задачами современной органической химии.

В последние годы в химической промышленности нашей республики актуальными задачами являются производство импортной продукции путем эффективного использования местного сырья и вторичных продуктов переработки. В частности, химическая промышленность и отрасли химического производства в соответствии с требованиями времени, а виды продукции и объемы производства химических предприятий увеличились в несколько раз. Это, в свою очередь, дает возможность увеличить ассортимент местной, импортозамещающей, перспективной экспортоориентированной продукции и поднять ее качество до мировых стандартов.

